



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI HAY'AT QARORI

2025-yil 19-fevral

№ 5/1

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-sonli Farmoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlar haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-sonli Farmoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalarning ijrosini belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli ta'minlash yuzasidan vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'limlari, vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, yirik gidrotexnik inshootlar va suv omborlari, irrigatsiya tizim boshqarmalari, "Suvqurilishinvest" hamda tumanlar "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida, hay'at yig'ilishi

Qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-sonli Farmoni **rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.**

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-sonli Farmoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash yuzasidan **"Yo'l xaritasi" ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

Belgilab qo'yilsinki, Davlat dasturidagi topshiriqlar ijrosini o'rnatilgan muddatlarda, to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi, shuningdek, ularning ijro holati to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligiga hamda "Ijro.gov.uz" tizimiga o'z vaqtida kiritilishiga vazirning barcha o'rinbosarlari **shaxsan mas'ul hisoblanadilar.**

3. Mazkur Farmon bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar hamda uning ijrosini ta'minlash yuzasidan **"Yo'l xaritasi"da** belgilangan vazifalarning ijrosi uchun mas'ul qilib Vazir o'rinbosari-Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov hamda Strategik rejalashtirish va metodologiya bo'limi boshlig'i S.Alimovlar tayinlansin.

4. Vazirning birinchi o‘rinbosari T.Butunbayev, Vazir o‘rinbosarlari R.Qarshiyev, Z.Ishpulatov, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga:

3 kun muddat ichida ushbu Farmon bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalarning ijrosini ta‘minlash yuzasidan **“Yo‘l xaritasi”** bilan har bir xodimni shaxsan tanishtirib chiqish, uning mazmun-mohiyatini yetkazish, ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosi belgilangan muddatlarda, to‘laqonli va sifatli ta‘minlanmagan taqdirda intizomiy jazo chorasi muqarrarligi, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ajratiladigan mukofot va rag‘batlantirish mablag‘laridan chegirib qolinishi haqida rasman ogohlantirish orqali barcha darajadagi rahbar va xodimlarning shaxsiy mas‘uliyati va javobgarligini kuchaytirish;

5 kun muddat ichida Davlat dasturidagi topshiriqlarini xatlovdan o‘tkazish, joriy yilda vazirlik tomonidan ishlab chiqilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarga, dasturlar, takliflar va chora-tadbirlarga aniqlik kiritib ularning ro‘yxatini shakllantirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni kamida **45 kun oldin** boshlab, tegishli vazirlik va idoralar hamda vakolatli organlar bilan kelishilgan hamda Adliya vazirligining xulosasini olgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini tashkil etish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni tashkil va ta‘min etish;

10 kun muddat ichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining topshiriqlarini tahlil qilib, ushbu topshiriqlar ichidan mablag‘ talab qilinadigan va xorijiy mamlakatlar, shu jumladan, Xalqaro moliya institutlari va chet el investitsiyalari bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha birinchi navbatda shug‘ullanib, ularni to‘laqonli va sifatli ta‘minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;

har oy yakuni bilan Davlat dasturi doirasida joriy yilga belgilangan prognoz ko‘rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini vazirlikning ZOOM platformasi orqali videokonferensaloqa (VKA) shaklida tanqidiy ruhda muhokama qilib, barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarining shaxsiy mas‘uliyati va javobgarligini kuchaytirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

har oy yakuni bilan mazkur Farmon va **“Yo‘l xaritasi”**dagi vazifalarning ijrosini ta‘minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar bo‘yicha alohida jild (*papka*) tashkil qilish, har bir topshiriq ijrosi bo‘yicha ma‘lumotlarni unga jamlash, mas‘ul ijrochilar bilan birgalikda har bir topshiriq bo‘yicha jadval (chap-o‘ng) shaklida tahliliy ma‘lumotlar qilish, muddati kelmagan topshiriqlar bo‘yicha ijroning borishi, ko‘rilgan choralar va qilingan ishlar to‘g‘risida ma‘lumotlarni shakllantirish, ijrosi ta‘minlangan topshiriqlar to‘g‘risida tegishli ma‘lumot va hisobotlarni naryadlarda tikilgan holda taqdim etish;

har oy yakuni bilan ushbu Farmon va **“Yo‘l xaritasi”**da belgilangan vazifalarning ijrosini ta‘minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga, Vazirlar Mahkamasiga, Hisob palatasiga, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga hamda Adliya vazirligiga axborot taqdim etib borish;

mazkur Farmon va **“Yo‘l xaritasi”**dagi vazifalarning ijrosini ta‘minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar bo‘yicha alohida jild (*papka*) tashkil qilish, har bir topshiriq ijrosi bo‘yicha ma‘lumotlarni unga jamlash, mas‘ul ijrochilar bilan birgalikda har bir topshiriq bo‘yicha jadval (chap-o‘ng) shaklida tahliliy ma‘lumotlar qilish, muddati kelmagan topshiriqlar bo‘yicha ijroning borishi, ko‘rilgan choralar va qilingan ishlar to‘g‘risida ma‘lumotlarni shakllantirish, ijrosi ta‘minlangan topshiriqlar to‘g‘risida tegishli ma‘lumot va hisobotlarni naryadlarda tikilgan holda taqdim etish;

Davlat dasturida belgilab qo‘yilgan topshiriqlarga yuqori mas‘uliyat bilan yondashgan holda topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli ta‘minlash bo‘yicha ishlarni to‘g‘ri

rejalashtirish, topshiriq ijrosini amalga oshirish uchun eng kam mablagʻ, resurs va energiya sarflanishi zarurligini inobatga olish;

topshiriqlarni ijro muddatidan barvaqt bajarish boʻyicha oldindan zarur chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish, yuzaga kelayotgan har bir muammoli masalani vazir oʻrinbosarlari, lozim boʻlsa Vazir huzurida muhokama qilib, hamkorlik va muloqot asosida hal etish;

mazkur Farmon va “Yoʻl xaritasi”dagi vazifalarning ijrosini belgilangan muddatlarda, toʻlaqonli va sifatli taʼminlash yuzasidan tizimli nazorat oʻrnatish va ushbu hujjatlarning ijrosini taʼminlash boʻyicha olib borilayotgan ishlarni muntazam ravishda tahlil qilish, topshiriqlarning ijrosini taʼminlashda eʼtiborsizlik va masʼuliyatsizlik bilan yondashayotgan rahbar va xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari qoʻllash yuzasidan vazirlik rahbariyatiga asoslangan xulosa va takliflar taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Vazir Kotibiyati mudiri A.Mangliyev hamda Tashkiliy-nazorat va tahlil boʻlimi boshligʻi M.Ibragimovlarga:

mazkur Farmon bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar hamda uning ijrosini taʼminlash yuzasidan **“Yoʻl xaritasi”da** belgilangan topshiriqlar ijrosini oʻrnatilgan muddatlarda, toʻliq, sifatli va soʻzsiz bajarilishi ijrosi yuzasidan **kunbay tizimida** tizimli va qatʼiy monitoring yuritish;

Davlat dasturidagi topshiriqlar ijrosi boʻyicha **“Ijro.gov.uz”** tizimiga kiritilgan maʼlumotlar va tasdiqlovchi hujjatlarga asosan topshiriqlarni nazoratdan yechish yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Hisob palatasi bilan muntazam ravishda hamkorlikda ish olib borish;

vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil boʻlimlari, vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Suv xoʻjaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari rahbarlari tomonidan ushbu Farmon bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar hamda uning ijrosini taʼminlash yuzasidan **“Yoʻl xaritasi”da** belgilangan topshiriqlar ijrosini muntazam ravishda (**har oy yakuni bilan**) tahlil qilib borish, ushbu topshiriqlar ijrosini taʼminlashga eʼtiborsizlik va masʼuliyatsizlik bilan yondashayotgan rahbar-xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari qoʻllash yuzasidan Vazirlik rahbariyatiga asoslangan xulosa va takliflar (**intizomiy jazo chorasi qoʻllash yuzasidan buyruq loyihasi**) taqdim etish vazifalari topshirilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini tashkil qilish, **har oy yakuni bilan** vazir oʻrinbosarlari huzurida tanqidiy muhokama qilib, tegishli choralar belgilash vazifasini vazirning tegishli oʻrinbosarlariga yuklab, uning nazoratini oʻz zimmasida qoldiraman.

Hayʼat raisi



Sh.Xamrayev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini
“Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi
PF–16-sonli Farmoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalarning ijrosini so‘zsiz ta‘minlash bo‘yicha
“YO‘L XARITASI”

№	Farmon bandlari va topshiriq mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar	
				Vazirlik markaziy apparatidan	Hududiy va tizim tashkilotlaridan
1	<i>1-band.</i> “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari etib quyidagilar belgilansin: mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko‘chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish; aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish; tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash; o‘simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko‘paytirish va keyingi avlodga yetkazish hamda biologik xilma-xillikni saqlash; “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish; respublika energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida yirik “yashil energiya” stansiyalarini barpo etish, hududlarda kichik va mikro gidroelektr stansiyalari tarmog‘ini kengaytirish, aholi xonadonlarida quyosh panellarini o‘rnatishni rag‘batlantirish;	1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–16-sonli Farmonini rahbarlik va ijro uchun qabul qilish. 2. Mazkur Farmonning mazmun-mohiyatini vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparati boshqarma va mustaqil bo‘limlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga yetkazish hamda ularning shaxsiy mas’uliyati va javobgarligini kuchaytirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2 kun muddat ichida 2025-yil davomida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, Z.Ishpulatov, N.Xo‘jaqulov, X.Lapasov, R.Sharopov, S.Alimov (u)	Vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari rahbarlari

№	Farmon bandlari va topshiriq mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	
				Vazirlik markaziy apparatidan	Hududiy va tizim tashkilotlaridan
	iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energo-tejamkor texnologiyalarni keng qo'llash orqali iqtisodiyotda "uglerod izi"ni kamaytirish; ekologik barqarorlikka yo'naltirilgan hududlar va tarmoqlararo muvofiqlashtiruvni ta'minlash. Belgilansinki, ustuvor yondashuvlar resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishni ko'zda tutuvchi iqtisodiy rivojlanish modeliga o'tish orqali 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishini kamida 6 foiz va uning hajmini 200 milliard AQSH dollariga yetkazish, inflyatsiyani 5 foiz, byudjet taqchilligini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foiz darajasida saqlash, kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish maqsadlariga erishishga asos bo'ladi.				
2	12-band. 2025-yilda tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash borasida: 1 ming kilometr kanallarni beton qoplamaga o'tkazib, suv tejoychi texnologiyalar qamrovini 1,6 million gektarga yetkazish hisobiga yiliga qo'shimcha 2,5 milliard metr kub suvni tejashga erishilishi; nasos stansiyalarida eskirgan nasos va elektr dvigatellarni zamonaviy energiya tejamkorlariga almashtirish, suv resurslari hisobini takomillash-tirish orqali nasos stansiyalarining elektr energiya iste'moli 300 mln kVtgacha kamaytirilishi;	1 ming kilometr kanallarni beton qoplamaga o'tkazib, suv tejoychi texnologiyalar qamrovini 1,6 million gektarga yetkazish hisobiga yiliga qo'shimcha 2,5 milliard metr kub suvni tejashga erishish bo'yicha tarmoq jadval ishlab chiqish va tasdiqlash; nasos stansiyalarida eskirgan nasos va elektr dvigatellarni zamonaviy energiya tejamkorlariga almashtirish, suv resurslari hisobini takomillashtirish orqali nasos stansiyalarining elektr energiya iste'moli 300 mln kVtgacha kamaytirish bo'yicha dastur ishlab chiqish va tasdiqlash;	5 kun muddat ichida 5 kun muddat ichida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, Z.Ishpulatov, N.Xo'jaqulov (u) Z.Ishpulatov, O.Abdullayev (u)	Vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari rahbarlari

№	Farmon bandlari va topshiriq mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	
				Vazirlik markaziy apparatidan	Hududiy va tizim tashkilotlaridan
	irrigatsiya va melioratsiya tizimlari obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish orqali 390 ming gektar qishloq xo'jaligi yer maydonlarining suv ta'minoti yaxshilanishi;	irrigatsiya va melioratsiya tizimlari obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish orqali 390 ming gektar qishloq xo'jaligi yer maydonlarining suv ta'minoti yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash;	5 kun muddat ichida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, Z.Ishpulatov, N.Xo'jaqulov (u)	
	sarflanayotgan suvning hisobi va hisoboti to'liq yuritilishini ta'minlash maqsadida magistral kanallar va muhim suv obyektlarida suvning yagona onlayn hisobini yuritish tizimi joriy etilishi;	sarflanayotgan suvning hisobi va hisoboti to'liq yuritilishini ta'minlash maqsadida magistral kanallar va muhim suv obyektlarida suvning yagona onlayn hisobini yuritish tizimini joriy etish bo'yicha dastur ishlab chiqish va tasdiqlash;	5 kun muddat ichida	R.Qarshiyev, Z.Ishpulatov, J.Abdurazzoqov, Sh.Haydarov, U.Qo'chqorov (u)	
	1,8 ming kilometr ichimlik va oqova suv tarmoqlari, 77 ta ichimlik va oqova suv inshootlari qurilishi hamda rekonstruksiya qilinishi;	1,8 ming kilometr ichimlik va oqova suv tarmoqlari, 77 ta ichimlik va oqova suv inshootlari qurilishi hamda rekonstruksiya qilinishi bo'icha Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga tavsiyalar taqdim qilish;	So'ralgan muddatlarda	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, Z.Ishpulatov, N.Xo'jaqulov (u)	
	ichimlik suv tizimida ma'nan eskirgan 746 ta nasos uskunalari energiya tejamlariga almashtirilishi, hududlarda 65,2 megavatt quvvatga ega quyosh panellari o'rnatilishi, suv inshootlari va magistral suv tarmoqlariga 955 ta zamonaviy suv hisoblagichlar o'rnatilishi;	ichimlik suv tizimida ma'nan eskirgan 746 ta nasos uskunalari energiya tejamlariga almashtirilishi, hududlarda 65,2 megavatt quvvatga ega quyosh panellari o'rnatilishi, suv inshootlari va magistral suv tarmoqlariga 955 ta zamonaviy suv hisoblagichlar o'rnatilishi bo'yicha Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga tavsiyalar taqdim qilish;	So'ralgan muddatlarda	Z.Ishpulatov, O.Abdullayev (u)	
	barcha ichimlik suv ta'minoti korxonalarida sifat monitoringini yuritish va ma'lumotlarni boshqarish markazlari yaratilishi;	barcha ichimlik suv ta'minoti korxonalarida sifat monitoringini yuritish va ma'lumotlarni boshqarish markazlari yaratilishi bo'yicha	So'ralgan muddatlarda	Z.Ishpulatov, A.Radjapov (u)	

№	Farmon bndlari va topshiriq mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	
				Vazirlik markaziy apparatidan	Hududiy va tizim tashkilotlaridan
	daryolar, ko'llar va kanallarga turli ifloslantiruvchi moddalar tashlanishi ustidan nazorat kuchaytirilishi ta'minlansin. Mazkur bandning so'zsiz, sifatli va o'z vaqtida ijrosini ta'minlashga mas'ullar etib tegishincha suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamrayev, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri Sh.Xidoyatov, Energetika vaziri J.Mirzamaxmudov, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri A.Abduxakimov belgilansin.	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga tavsiyalar taqdim qilish; daryolar, ko'llar va kanallarga turli ifloslantiruvchi moddalar tashlanishi ustidan nazorat kuchaytirilishida amaliy yordam ko'rsatish.	So'ralgan muddatlarda	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, Z.Ishpulatov, R.Raximov (u)	
3	15-band. Keng jamoatchilik, xalqaro va mahalliy ekofaollar, ekologiya sohasi ilmiy hamjamiyati taklif-larini inobatga olgan holda tuproqning unumdor qatlamini saqlab qolish va yashil hududlarni asrash maqsadida: 2025-yil 1-iyuldan boshlab ko'p qavatli uylar massivlaridagi tuproq va yashil qoplamali umumiy foydalanishdagi hududlarni o'zboshimchalik bilan betonlashtirganlik, qurilma va konstruksiyalarni o'rnatganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytiriladi; 2025-yil 1-avgustdan boshlab pishgan g'isht ishlab chiqarishdan muqobil texnologiyalardan keng foydalanishga o'tish maqsadida devorbop materiallardan (penoblok, gazoblok) keng foydalanuvchi qurilish tashkilotlariga "Shaffof qurilish" platformasida ustuvorlik beriladi; 2026-yil 1-yanvardan boshlab pishgan va xom g'isht ishlab chiqarishda yer qa'ridan foydalanlik uchun soliq stavkasi 2025-yil uchun belgilangan stavkaga nisbatan 2 baravarga	1. Mazkur topshiriqlarni rahbarlik va ijro uchun qabul qilish. 2. Ushbu topshiriqlarning mazmun-mohiyatini vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparati boshqarma va mustaqil bo'limlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarining barcha darajadagi rahbar-xodimlariga yetkazish hamda ularning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2 kun muddat ichida Doimiy	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, Z.Ishpulatov, N.Xo'jaqulov, X.Lapasov, R.Sharopov, S.Alimov (u)	Vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari rahbarlari

№	Farmon bandlari va topshiriq mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	
				Vazirlik markaziy apparatidan	Hududiy va tizim tashkilotlaridan
	oshirilgan holda qo'llanadi hamda 2027-yildan bosqichma-bosqich qo'shimcha ravishda oshiriladi; 2027-yil 1-yanvardan boshlab yer resurslarini muhofaza qilish va tuproqning unumdor qatlami yo'qolib ketishining oldini olish maqsadida qishloq xo'jaligiga, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar, tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar, o'rmon va suv fondi yerlarida tuproq karerlari faoliyati taqiqlanadi; ko'p qavatli turar joylarni loyihalash, qurish va foydalanishga qabul qilishda oqova, yomg'ir va texnik suvlardan sug'orishda foydalanish tizimlarini tashkil etish majburiy etib belgilanadi.				
4	24-band. Quyidagilar: a) O'zbekiston mahallalari uyushmasi (Q. Kuranbayev): bir hafta muddatda tuman va shaharlar kesimida 2025-yilda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida mahallalarda daraxt ko'chatlarini hamda xonadonlar va ichki ko'chalarga gul va qalamchalarni ekish dasturlari Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini; 2025-yil bahor-kuz mavsumlarida respublikadagi barcha mahallalarning ichki ko'chalari va aholi xonadonlarida 32 million tup mevali va manzarali daraxtlar, buta ko'chatlarini hamda rayhon, gultoji, atirgul va boshqa gullar, shuningdek, qalamchalarni ekish va parvarishlab borishni; "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish maqsadida 2025-	1. Ushbu topshiriqlarni rahbarlik va ijro uchun qabul qilish. 2. Mazkur topshiriqlarning mazmun-mohiyatini vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparati boshqarma va mustaqil bo'limlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarining barcha darajadagi rahbar-xodimlariga yetkazish hamda ularning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish. 2025-yil bahor-kuz mavsumi uchun belgilangan rejaga muvofiq ko'chat ekish parametrlarining reja-jadval asosida belgilangan muddatlarda bajarilishini so'zsiz ta'minlash.	2 kun muddat ichida Doimiy 2025-yil bahor-kuz mavsumi davomida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, Z.Ishpulatov, R.Begmatov (u)	Vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari rahbarlari

№	Farmon bandlari va topshiriq mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	
				Vazirlik markaziy apparatidan	Hududiy va tizim tashkilotlaridan
	yilning 10-fevraldan 10-martga qadar har bir xonadon, ko'cha va qabristonlarda obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish ishlarini uyushqoqlik bilan tashkil etishni; Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda Navro'z bayramiga qadar mahallalar o'rtasida "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" ko'rik-tanlovlari o'tkazilishini ta'minlasin. Mazkur bandeda nazarda tutilgan tadbirlar Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasi, homiylik va xayriya mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi belgilansin; b) Bosh prokuratura (Sh.To'xtaboyev) O'zbekiston mahallalari uyushmasi (Q.Kuranbayev) bilan birgalikda joylarga chiqqan holda mazkur bandeda nazarda tutilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishini ta'minlasin.	suv xo'jaligi tashkilotlarida 2025-yil bahor mavsumida sug'orish tarmoqlarini daraxt ko'chatlari bilan qamrab olish bo'yicha favqulodda ish rejimi joriy etish; suv xo'jaligi obyektlari foydalanishida bo'lgan yer maydonlari ko'chat ekish istagini bildirgan talabgorlarga 10-yilga bepul ijara shartnoma asosida ajratib berilishini ta'minlash, bunda yerlar, birinchi navbatda, suv xo'jaligi xodimlariga ajratilishini nazoratga olish; investitsiya dasturi doirasida rekonstruksiya qilinadigan va betonlashtiriladigan kanallar bo'ylarida 3–5 qatordan ko'chat ekilishini ta'minlash; 2025-yillar bahor-kuz mavsumi uchun belgilangan rejaga muvofiq suv xo'jaligi obyektlari bo'ylariga 9,6 mln dona daraxt ko'chatlari ekilishini belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlash. "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish maqsadida 2025-yilning 20-fevraldan 10-martga qadar har bir xonadon, ko'cha va qabristonlarda obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish ishlarini uyushqoqlik bilan tashkil etish. suv xo'jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan barcha darajadagi ishchi-xodimlar o'tasida kesimida 2025-yilda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida mahallalarda daraxt ko'chatlarini hamda xonadonlar va ichki ko'chalarga gul va qalamchalarni	2025-yil bahor-kuz mavsumi davomida 2025-yil bahor-kuz mavsumi davomida 2025-yil bahor-kuz mavsumi davomida 2025-yil bahor-kuz mavsumi davomida 20-fevraldan 10-martga qadar 2025-yil bahor-kuz mavsumi davomida		

№	Farmon bandlari va topshiriq mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	
				Vazirlik markaziy apparatidan	Hududiy va tizim tashkilotlaridan
		ekishni ommalashtirish bo'yicha tashabbus va targ'ibot ishlarining keng olib borish, bu borada amalga oshirilgan tadbirlarni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida, vazirlikning rasmiy veb-sayti, matbuot kotibining "Telegram" ijtimoiy tarmog'idagi kanali, "Facebook" ijtimoiy tarmog'idagi sahifasida izchil yoritib borilishini ta'minlash.			
5	31-band. "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi o'rinlarda - Davlat dasturi) doirasida quyidagilar 1-21-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin: 2025-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasi; 2025-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro'yxati; 2025-yilga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar; 2025-yilda atrof-muhitni asrash yo'nalishida vazirlik va idoralar tomonidan birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar rejasi; 2025-yilda atrof-muhitni asrash bo'yicha xalqaro hamkorlik yo'nalishida chora-tadbirlarni amalga oshirish rejasi; O'zbekiston Respublikasida "Yashil turizm" dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi; 2025-yilda hududlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatlarini joriy etish rejasi; 2025-yilda bahor-kuz mavsumlarida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida mahallalarda daraxtlarni ekish bo'yicha reja;	1. "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturini rahbarlik va ijro uchun qabul qilish. 2. Davlat dasturining mazmun-mohiyatini vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparati boshqarma va mustaqil bo'limlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga yetkazish hamda ularning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish. Davlat dasturidagi topshiriqlarini xatlovdan o'tkazish, joriy yilda vazirlik tomonidan ishlab chiqilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga, dasturlar, takliflar va chora-tadbirlarga aniqlik kiritib ularning ro'yxatini shakllantirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni kamida 45 kun oldin boshlab, tegishli vazirlik va idoralar hamda vakolatli organlar bilan kelishilgan hamda Adliya vazirligining xulosasini olgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini tashkil etish bilan bog'liq chora-tadbirlarni tashkil va ta'min etish;	2 kun muddat ichida 5 kun muddat ichida 5 kun muddat ichida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, Z.Ishpulatov, N.Xo'jaqulov, X.Lapasov, R.Sharopov, S.Alimov (u)	Vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari rahbarlari

№	Farmon bndlari va topshiriq mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	
				Vazirlik markaziy apparatidan	Hududiy va tizim tashkilotlaridan
	2025-yilda bahor mavsumida mahallalarda xonadonlar va ichki ko'chalarga gul hamda qalamchalarni ekish bo'yicha reja.	2025-yilda bahor-kuz mavsumlarida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida vazirlik tasarrufidagi suv xo'jaligi obyektlari joylashgan maydonlar, ariq va zovurlar hamda kanallar atrofiga daraxtlarni ekish bo'yicha reja ishlab chiqish va tasdiqlash; 2025-yilda bahor mavsumida vazirlik tasarrufidagi suv xo'jaligi obyektlari joylashgan maydonlar, ariq va zovurlar hamda suv xo'jaligi xodimlari istiqomat qiladigan xonadonlar va ichki ko'chalarga gul hamda qalamchalarni ekish bo'yicha reja ishlab chiqish va tasdiqlash.	5 kun muddat ichida 5 kun muddat ichida		
6	37-band. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib vazirlik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin. Farmon ijrosini muntazam ravishda muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish "O'zbekiston-2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasi zimmasiga yuklansin. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar to'g'risida har chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritib borilsin.	Ushbu Farmon va "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga, Vazirlar Mahkamasiga, Hisob palatasiga, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga hamda Adliya vazirligiga axborot taqdim etib borish.	Har oy yakuni bilan	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, Z.Ishpulatov, N.Xo'jaqulov, X.Lapasov, R.Sharopov, S.Alimov (u)	Vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari rahbarlari

Tashkiliy-nazorat va tahlil bo'limi